

**“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID  
MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALALARING YORITILISHI”**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

**SAFAR XOTIRALARIDA IJTIMOIY VA MADANIY-MA'RIFIY  
MASALALARING YORITILISHI**

**Xurshida Djalilova**

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU  
f.f.n., dotsent*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Mahmudxo‘ja Behbudiyning safar xotiralariga asoslangan “Qasdi safar” asarida ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy masalalarni tahlil qilishga bag’ishlangan. Behbudiyning safar xotiralarini tahlil qilish orqali xorij mamlakatlarga sayohat va xizmat safarlari jadidlar uchun ona yurtni erkin va obod etishga, xalqning ongini, madaniyatini o’stirishga, uni johillik girdobidan olib chiqishga, yangi g‘oyalarni targ‘ib qilishga, taraqqiyotga g‘ov bo‘layotgan muammolar yechimini topishga yordam beradigan o‘ziga xos vositalardan biri bo‘lgan degan xulosaga kelish mumkin.

**Kalit so‘zlar:** jadidchilik; ma'rifat; madaniyat; safarnoma; sayohatnoma; adabiy an'ana; safar xotiralar; muallif-sayyoh; publitsistika.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston hayotiga yangi ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy g‘oyalarning kirib kelishida rivojlangan o‘lkalarga sayohat va xizmat safarlari muhim rol o‘ynagan. Safar taassurotlari yangi avlod adiblarining shakllanishiga, ularning dunyoqarashiga, hayot tarziga, atrofdagi voqealarga munosabatining o‘zgarishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Aynan shu davrda jadidchilik harakatining Turkistonda keng quloch yoyilishiga ushbu omil ham sabab bo‘lgan, zero aynan chet ellarga sayohat adiblarning o‘z vatanlaridagi siyosiy jarayonlarga teran qarashga, “o‘zi”ni va “o‘zga”ni qiyoslashga imkon bergen. Ular rivojlangan davlatlar bo‘ylab safarlardan o‘z yurtlariga qaytganlarida, vatanining og‘ir iqtisodiy ahvoli, tobeligi, jaholat girdobida ekanligi yana-da yaqqol ko‘zga tashlana boshlaydi. Bu safarlar jadidlar uchun yangi ilg‘or g‘oyalarni Turkistonga tadbiq etish yo‘llarini axtarishga va eng muximi, mustaqillikka erishish uchun bel bog‘lashga undagan. Ushbu davr adiblari tomonidan yozib qoldirilgan sayohatnomalar fikrimizning dalili bo‘la oladi. Jadid adiblar qadimiy an'analarni davom ettirgan holda sayohatnoma janriga yangicha ruh berdilar. Ularning safarnomalari akademik Naim Karimovning ta'biri bilan aytganda, «Furqat, Muqimiy, Ahmad Donish singari mashhur shoirlar asos solgan o‘zbek ma'rifatparvarlik adabiyoti daraxti gullagan zaminda maydonga keldi» [1,10]. Bu davr adiblariga ulardan bir oz ilgari o‘tgan vatandoshlari Hakimxonto‘ra Ma'sumxon‘ra o‘g‘li («Muntaxab ut-tavorix» - «Tanlangan tarixlar») va Ahmad Donish («Navodir ul-vaqoye») ning ta’siri katta bo‘ldi, deb yozadi jadidshunos olim Ulug‘bek Dolimov [2, 8-9]. O‘zbek jadid adiblari ham o‘z safarnomalarda Donish, Muqimiy, Furqat an'analarni davom ettirib, ma'rifat g‘oyalarni ilgari surishsa-da, “bu g‘oyalarning ular ijodida xalq va mamlakat taqdiri ila uzviy bog‘lanib ketganligi bilan ajraladi. Jadid shoir va

# “MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

yozuvchilarining asarlarida ifodalangan ma’rifatparvarlik g‘oyalari erk va hurriyat g‘oyalari bilan, mustaqillik uchun kurash g‘oyalari bilan tutashib ketgan” [1,10].

XX asr boshi o‘zbek adabiyotida safarlar taassurotlarini birinchilardan bo‘lib nasrda bitgan jadid adibi Mahmudxo‘ja Behbudiyydir. Xorijiy safarlarga bir necha marotaba chiqqan «Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g‘oyasining yalovbardori, yangi maktab g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, birinchi dramaturg, teatrchi, noshir va jurnalist» [3,5] Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Qasdi safar “ asari bunga yorqin misol bo‘la oladi. Aynan maorif tizimini, madaniyat sohasini isloh qilish, matbuotni yo‘lga qo‘yish kabi ijtimoiy-ma'rifiy masalalar Behbudiyning safarnomasida istiqlol uchun kurash siyosiy g‘oyasi bilan sug‘orilgan. Behbudiylar ilk bor 1899-1900 yillarda haj safariga chiqadi. 1903-1904 yillarda esa Behbudiy Moskva va Peterburgga boradi, 1906 yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo‘ladi, «bular sayohat emas, xizmat safari edi» deb yozadi jadidshunos olim Begali Qosimov [3,10]. Bu safar haqida Behbudiyning o‘zi shunday ma'lumot bergen edi: «1325 sanai hijriyasinda Rusiya musulmonlarining muhtaram ziyoli va akobirlarining Nijni yorminkasinda milliy ishlar to‘g‘risinda mashvarat qilinaturgan majlisg‘a musharraf bo‘lmoq uchun O‘runburg yo‘li ila Masko‘v, Peterburg, Qozon vositasi-la Nijni Novag‘o‘ro‘d borib edim» [4,54]. Oradan o‘tgan yetti yil davomida Behbudiy boshqa uzoq safarlarga chiqmagan, biroq o‘zga yurtlarni ko‘rish, ularning tajribalarini o‘rganish Behbudiylar uchun juda muhim edi. U o‘zining ikkinchi bor uzoq ellarga safarga chiqmoq niyatini quyidagicha izohlaydi: «Safar 25 kun so‘zulub (1907 yilgi Nijniy Novgorod safari – Dj.X.), 7 sanadan beri ikki da‘fa Buxoro va bir da‘fa Farg‘onani ziyyaratidan boshqa safarga chiqqanim yo‘q edi. Azbaski, «tiriklik» kasalig‘a mubtalolik, ro‘zg‘or qaydig‘a giriftorlik sayohat ne'matidan mahrum etar... A'zo va havaslarg‘a kasolat paydo bo‘ldi. Singir (asab)... g‘ayri muntazam ishlaydur. Atibbo istirohat va sayyohatg‘a mashvarat berarlar» [4,54]. Behbudiylar «Kafkaz va Qirim vositasi-la Istanbulg‘a, andin Yunonistong‘a kirib, so‘ngra Bayrut tariyqi-la Misr al-Qohirag‘acha borib, yana qaytishga Istanbulg‘a kirib, Rum eli temur yo‘li ila Bulg‘oriston, Avstriya va Berlin tariyqi-la vatani azizimiz Rusiya va Turkistong‘a advat etilsa, ikki-uch oydin beri ushbu safarning tahiyyasida eduk», deb yozadi [4,55]. Behbudiyning safar xotiralarini o‘qish jarayonida kitobxon adib faoliyati va shaxsiyati bilan muallifning o‘zi yozgan avtobiografik ma'lumotlar orqali tanishadi. Masalan, safarnomaning ilk sahifalaridan uning Turkistondagi gazeta va jurnallar nashri uchun zarur bo‘lgan “klishe” qoliqlar, “Kutubxonai Behbudiya” va maktablar uchun kitoblar, xaritalar olib kelishi haqidagi faoliyatiga doir ma'lumotlarga ega bo‘lamiz, sayohat davomida muallif-

# “MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

sayyohning yo‘lda uchratgan odamlar va hamrohlari bilan suhbatini kuzatamiz, yo‘lda sodir bo‘lgan turli voqealarni nisbatan munosabati bilan tanishamiz.

Behbudiylar asarida o‘zi bo‘lgan mamlakatlarda yashovchi aholining turmushi, urf-odatlari, imon-e’tiqodi masalasiga alohida to‘xtaladi. Adib safarining birinchi kuni Marv shahridagi ruslarning cherkovlari va yahudiylarning ibodatxonalarini obod va ozoda bo‘lgani holda, musulmonlarning masjidlari yo‘qligi, borlari ham nochor ahvoldaligi, atroflari iflos ekanlignini ko‘rib, afsuslanadi: «Marvda aholi aksariyat rus, arman va eron tab’alaridur. Atrof ahli turkman bo‘lub, shahariy (shaharli) bo‘lganlari yo‘q. Hanuz qora uy-chodirlarig‘a tirikchilik qiladurlar. Marvda uzoqdan rus kalisosining qubbasi ko‘rulur. Atrofdagi yuz minglar ila «musulmon»(!)ni masjidi ko‘rinmaydur. Aholi shariatdan ziyoda odatg‘a tobe’ va asiri jaholatdur» [4,57].

Muqqaddas shahar - Quddusi sharifdagi ko‘hna masjid atrofidagi ahvol ham achinarli: «Harami sharifni uchdan ikki hissasi iflos, chaqir-chuqur, har yerga o‘t chiqib, o‘zi qurub-churub ketmoqdadur. Haram ichig‘a bir necha yerda suv bor ekan. Mundagi sarv, zaytun va boshqa daraxtlar suvsizlikdan qurumoqdadur... mundagi talaba va mashoyix ham dalillarni dasturxonidan chiqgon suyaklar va shiprindilar yillardan beri to‘dalanib yotibdur. Hukumati va yo baladiyasini haramg‘a qaraydurgon ko‘zi ko‘r bo‘lg‘on» [4,112]. Behbudiylar achinarli ahvol nafaqat Quddusga, balki barcha islom dunyosiga xosligini ta’kidlaydi. Behbudiylar Quddusdagi ruslarning cherkovlariga kiradi, ularning obodligi, saranjom-sarishtaligini ta’kidlaydi va masjidlar bilan solishtirib, quyidagilarni yozadi: «Quddus ichinda va atrofinda ko‘p adad kalisolar ustindagi jilolik qubbu va salibi ilan ko‘zni o‘zig‘a tortar. Musulmoniy dini imoratlar ustining tunuka va masjid qubbalarining ustinda qo‘yulgon va alomati islom bo‘lgan hilollar kamoli chirkinlikda ko‘runub, zang bosib, mujallo salib muqobilinda hazin bir manzara ko‘rsatadurki, mundan nasoralarni dinig‘a ixlosligi va musulmonlarni loqaydligi ma'lum bo‘ladur» [4,131].

Behbudiylar safar xotiralarida Kavkaz, Turkiyaning go‘zal va betakror tabiatini, inshoatlarini extiros va xavas bilan tasvirlaydi. Masalan, Kavkazdagagi kurort shaharlarining obodligini, jumladan Jeleznovodsk (Temursuyi) haqida shunday yozadi: «Munda eng dilrabo tabiiy chahorbog‘ ichida ajoyib manzaralik rangorang guliston va alar orasida yuz olchinlar ila uzilg‘on shishalik ko‘shklar va aning ichida kitobxona, shatranjxona ham raqs va musiqi uchun ajab binolar, taomxona, choyxona va mayxonalar bino qilinubdur»[4,64]. Behbudiylar o‘z vatani Turkistonni ham shunday obod ko‘rishni orzu qiladi va buni sa’y-harakat orqali amalga oshirish mumkinligiga ishonadi.

Muallif bilgan, eshitgan voqealarni hamrohlari, suhbatdoshlari tilidan bayon qiladi. Behbudiylar safari mobaynida Yaqin Sharqning turli shaharlarida o‘z

# “MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

vatandoshlarini uchratadi, ular bilan birga safar qiladi. Ularning aksariyati o‘zlarini tutishlari, yupun, iflos kiyim-kechaklari bilan adibni qayg‘uga soladi. Behbudiya safar davomida tashrif buyurgan masjidlardagi «qozma va qambartma naqshlar insonni duchori hayrat etar,... inson o‘zini bir olam hunar, bir dunyo san’at ichinda ko‘rub, avvalgi musulmonlarning din yo‘linda etgon say‘i va qilgon ixloslarining hamda hunar va nafis san’atda etgan taraqqiyolarining va sarf etgan pul va g‘ayratlarini o‘yloviq‘a g‘arq bo‘lub, ko‘zi tinar va hech nimani ko‘rmas darajasig‘a kelur» [4,95] deya, shunday binolarni barpo etgan ajdodlarga murojaat etib, ularga tahsinlar o‘qiydi: «Ey, o‘tmish muqaddas musulmonlar! Ey boniyalar! Ey fotihlar! Olloh Sizlarni nihoyasiz rahmatlarga g‘arq etsunki, zamonangizda bu qadar lohutiy asarlar va muqaddas buq’alar bino etibsiz. Chin musulmonlar, haqiqiy insonlar sizlarsiz» [4,115].

Shu bilan birga adib o‘z zamondoshlarining ularga nomunosib avlod ekanligini, bunga ularning jaholatga botib ketganligi sababligini ko‘rsatadi: «... sizlarning tarziya va tavsifingizdan bu kungi, biz musulmonlar ojizmiz. Bizlar sizning nohalaf avlodingizdurmiriz. Sizni izingizdan ketmoqqa jaholatimiz mone' bo‘ldi... Biz, gumrohlar, yo‘ldan chiqib, hazizi (tuban) nafsoniyatg‘a kulliyon (butunlay) cho‘mubmiz. Bukun o‘zlarini madaniyat va insoniyatni eng oliy tabaqasinda deb yalg‘ondan da‘vo etadurgon insonlar vahshoniyatni eng asfal (tuban) darajasinda qo‘l va ayoq urarlar. Milyo‘nlar ila bani odamning boisi kulfati va musibati bo‘lurlar» [4,115-116]. Nemis olimasi Ingeborg Baldaufning ta‘kidlashicha «muqqadas yurtga haj safari to‘g‘risida maqolalar yozish orqali Behbudiya vatan haqidagi achchiq haqiqatlarni tilga olishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ygan edi» [5,29]. Behbudiya o‘zi kezgan o‘lkalardagi musulmon aholining ayanchli ahvoli haqida gapirar ekan, ularning qashshoqligiga erksizligi va savodsizligi sabab ekanligini ko‘rsatadi.

Behbudiyning sayohat xotiralari har jihatdan muhim bo‘lib, unda muallif-sayyoh safar davomida bo‘lgan yerlarning mahalliy aholisi, ularning turmush tarzi bilan qiziqadi, urf odatlari, uduumlari haqida aniq ma'lumotlar berib boradi, yo‘lda uchratgan hamrohlar suhbatini, odamlarning yaxshi va yomon taraflarini, ibrat bo‘la oladigan xulq-atvorini kitobxonlarga bayon etadi. Muallif turli hududlarning o‘ziga xosligini, uning tarixi, tabiatni, obidalari haqida katta qiziqish bilan ma'lumot yig‘adi va batafsil qog‘ozga tushiradi. Safarnomada Behbudiya diniy e’tiqodga oid masalalarga katta e’tibor qaratadi, yo‘lda uchragan Turkiston musulmon xalqining mustamlaka sharoitidagi ayanchli ahvolini kontrast usuli orqali kitobxonlarga yaqqol namoyon etadi. Muallif-sayyoh Turkiya, Misr davlatlaridagi ta‘lim, matbaa sohasida amalga oshirilgan ijobil o‘zgarishlarni kuzatadi, o‘z taassurotlarini hayajon bilan tasvirlaydi.

# “MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALALARING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Safar xotiralarida rivojlangan ilg‘or, ozod mamlakatlarning obod manzarasi fonida Turkiston xalqining o‘sha davrlardagi og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, qoloqligi, johilligi, qaramligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Safarnomada muallif o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan qishloq va shaharlar hayoti misolida maorif, matbuot, adabiyot, madaniyat masalalarini qiyosiy planda tadqiq etadi. Behbudiy shaharlardagi go‘zal manzaralarni, inshoatlarni, madaniy muassasalarini tasvirlar ekan, o‘z yurtini ham shunday obod va ozod ko‘rish istagi unda yanada kuchayganini, shijoati oshganini ziyrak kitobxon sezishi qiyin emas. Sayohat xotiralarida muallif chet mamlakatlar xalqlari hayotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning ijobiy tomonlarini axtaradi, kitobxonlarini ulardan o‘rganishga, ibrat olishga va yangiliklarni hayotga tadbiq qilishga chaqirish bilan birga, barcha illatlarni qattiq tanqid ostiga oladi. Muallifning diqqat markazida ta’lim sohasidagi islohatlar bilan bir qatorda millatning turmush darajasini ko‘tarish, Turkiston o‘lkasining iqtisodiy-siyosiy muammolarini yechish kabi masalalar ham turgan.

Behbudiy o‘z safar xotiralarida Turkiya manzaralari, tarixini tasvirlashga ko‘p joy ajratgan. Sulton Salim jome’sini katta hayrat bilan tasvirlab, “muning muqobilida jome’I sharifning till ova sadafkorlik katta darvozasi bordurkim, andan kirib, bu muqaddas jome’I sharifning ichidagi osor va san’atlarkim, avvalgi musulmonlarning asaridur, ko‘rgan kishilarni bahs va g’ayratlarg’a g’arq etar” deya, “Muni man so’ylamayman. Ovruponing mudaqqiq va olimlari so’ylaydir” ekanini ta’kidlaydi. Muallif bu usul orqali fikrining ta’sirini yana-da kuchaytiradi. “Manzarasidan to’ymasdan choru nochor” ushbu jome’I sharifdan chiqib, muallif-sayyoh uning tarixi xaqida bayon etadi. Sayohat xotiralarining “Istanbul. Bo’sfo’r bo’g’ozi” deb nomlangan qismida Behbudiy bat afsil geopolitik ma’lumotlarni berib boradi. Jumladan, “...Qora dengiz ila Marmara dengizi bir-birig’a Istanbulda etishur. Qora dengiz sohillarindagi davlatlar Rusiya, Turkiya, Ro’moniya, Bulg’oriya bo’lub, Qora dengiz sohillarini askari avvaldan Russiya, so’ngra Turkiya tasarrufida bo’lub, ozginasi Ro’moniya va bir parchasi yerlaridan iborat...Bo’g’ozning eng chuqr mahali 52 metry darinlikda bo’lub, eng sayoz eri 27 metrudur”. Turkiya bilan bog’liq sayohat taasssuotlarining ham tarixiy, ham ma’rifiy nuqtai nazardan eng muhim qismi, nazаримизда “Ismoilbek Hazratlari ila suhbat”dir. “Ollohning lutfi ila ustod xazratlarining tanhon 7 suhbatlaridan u qadar fayz t opib mazmun qoldimki, aytgan ila ado etolmayman, v aul suhbatning lazzati also mandan ketmaydur” deya, Behbudiy jadidlar rahnamosi Gaspalini tasodifan Istanbulda ko’rib qolgani va uning suhbatidan so’ngi bor musharraf bolganini chuqr ehtirom bilan so’zlab beradi. Kitobxon kechga qadar davom etgan ushu suhbat shak-shubhasisi

# **“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

musulmonlar taqdiri, ularning hur va obod kelajagi bilan bog’liq bo’lgan, deb tahmin qilishi tabiiy.

Behbudiyning ushbu safarlari uning dunyoqarashida katta o’zgarishlarga sabab bo‘ladi, dunyoni o‘rganishga, xususan geografiyaga bo‘lgan qiziqishini yanada orttiradi, “jug‘rofiya o‘qumoq musulmonlarga lozimdur” degan fikriga yana-da iqror bo‘ladi. Sayohat davomida Behbudiyning turli hududlar, davlatlardagi musulmonlar, xristianlar, shuningdek boshqa millat va din vakillari hayoti, turmush tarzini o‘rganishi, turli ijtimoiy darajadagi odamlar bilan muloqoti, ilg‘or fikrlaydigan insonlar bilan tanishishi, ular bilan bo‘lgan suhbatlar adibning dunyoqarashi va keyingi faoliyatidagi katta burilish va yuksalishga, tom ma’noda uning jadidlar karvonboshi bo‘lishiga ham sabab bo‘ldi deyish mumkin. Behbudiy safar xotiralarida o‘zi bo‘lgan mamlakatlardagi aholining turmushi, eng avvalo maktab, matbuot, teatr, shifoxonalar soni va faoliyati bilan qiziqishi, ular haqida batafsil ma'lumotlar berib borishini kuzatamiz. Bu shunchaki statistik ma'lumotlar to‘plash emas, balki eng avvalo Behbudiyning ma'rifatparvar jadid sifatida ularni o‘rganib, tahlil qilib, ilg‘or mamlakatlar tajribasini Turkistonda tadbiq etish maqsadi bilan bog’liq, albatta. Behbudiyning “Qasdi safar” asarini tahlil qilish orqali xorij mamlakatlarga sayohat va xizmat safarlari jadidlar uchun ona yurtni erkin va obod etishga, xalqning ongini, madaniyatini o‘sirishga, uni johillik girdobidan olib chiqishga, yangi g‘oyalarni targ‘ib qilishga, taraqqiyotga g‘ov bo‘layotgan muammolar yechimini topishga yordam beradigan o‘ziga xos vositalardan biri bo‘lgan degan xulosaga kelish mumkin.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov N. Jadidlarning ma'rifiy faoliyati: g'oyaları, maqsadları, vazifaları va Turkiston taraqqiyotiga qo'shgan hissasi. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari to'plami – Toshkent: 2023.
2. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. T., Universitet, 2006.
3. Qosimov B. Karvonboshi. // Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Tuzatilgan va to‘ldirilgan 2-nashri. T., Ma'naviyat, 1999.
4. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. T., Ma'naviyat, 1999.
5. Baldauf I. XX asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar. T., Ma'naviyat, 2001.